

## AHOLI TIBBIY MADANIYATINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA UNING ZAMONAVIY MEDIA MUHITIDAGI O'ZIGA XOSLIGI

Gulruxor Qurbonova,

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

**Annotatsiya:** Hozirgi zamon o'zbek media makoni o'zining tezkorligi, haqqoniyliги va dolzarb mavzularni yoritib borayotgani bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Bu borada barcha sohalarda rivojlanish, yuksalish, o'sish, zamon bilan hamnafas bo'lish, ulkan marralarni zabt etish uchun har bitta sohada alohida keng qamrovli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Tadqiqot doirasida ixtisoslashgan jurnalistikaning o'ziga xosligi va metodlari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** ommaviy kommunikatsiyalar, sotsial-iqtisodiy, arxitektonika, mass-media, COVID-19, inklyuziv, plyuralistik, ommaviy axborot.

### Kirish va gipoteza

Mamlakatimizda so'z erkinligini ta'minlash, axborot va ommaviy kommunikatsiyalar sohasini boshqarish tizimini qayta tashkil qilish, ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy rivojlanishning muammoli masalalarini hal etishda ommaviy axborot vositalarining rolini oshirish bo'yicha sezilarli ishlar amalga oshirildi. Shu bilan birga, sohada hozirgi holat tahlili media makonda yuzaga kelayotgan chaqiriqlarga tezkorlik bilan munosib javob qaytarilmayotganini ko'rsatib, mamlakatda amalga oshirilayotgan ulkan miqyosdagi islohotlar to'g'risidagi keng qamrovli ma'lumotlarni o'z vaqtida taqdim etish bo'yicha jamiyat ehtiyojlari axborot sohasidagi ishlarni sezilarli darajada oshirishni, davlat organlari va tashkilotlarining axborot xizmatlari, ommaviy axborot vositalarining faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishni taqozo etmoqda (Mirziyoev, 2019).

XXI asr jahon hamjamiyati tomonidan "axborot kommunikatsiyalari asri" deya e'tirof etilmoqda. Bunday sharoitda bilim, axborotga egalik ishlab chiqarish va iqtisodiy aloqalar ustidan hukmronlik qilish imkonini beradi. Kompyuter madaniyatining kirib kelishi tufayli insonning o'z ustida ishlashiga, o'z malakasini oshirishga intilishiga asoslangan fikrlashning, bilim olishning yangi ko'rinishi yuzaga keldi (Qosimova, Muratova, Toshpo'latova, Shofayzieva, 2008).

Bugungi kunda Internet va zamonaviy mass-media jadal sur'atlarda rivojlanib o'sib bormoqda. Internet va zamonaviy media sharoitida har qanday kishi axborot muallifi va tarqatuvchisi bo'lishi mumkin. Bu turdagi faoliyatni amalga oshirish uchun jahon hamjamiyati tomonidan barchaga axborot berish vositalaridan foydalanish bo'yicha teng imkoniyat yaratish usullari ishlab chiqilmoqda. Hukumatlar bu borada ish olib bormoqda va o'z

#### Iqtibos:

Qurbonova, Gulruxor. 2024. Aholi tibbiy madaniyatining rivojlanish bosqichlari va uning zamonaviy media muhitidagi o'ziga xosligi. Markaziy Osiyoda media va kommunikatsiyalar Xalqaro ilmiy jurnali. 4:94-103.

qonunchilik hujjatlariga axborot almashinuvi sohasidagi huquqiy munosabatlarni, ma'lumotlarni olish va tarqatish bo'yicha huquqni, alohida shaxslarning chop etilgan materiallar bo'yicha majburiyatlari va mas'uliyatini tartibga soluvchi turli me'yorlarni kiritmoqda (Jilavskoy,2015).

Internet tarmog'ining kengayib borishi bevosita matbuot nashrlariga ham ta'sir ko'rsatib, gazeta va jurnallarning elektron shaklga o'tish jarayonini kuchaytirmoqda. Bugun matbuot do'konlarida tizilishib turgan odamlar navbatini uchratish mahol, biror axborot ilinjida gazeta-jurnal varaqlashga ham tobora ehtiyoj kamaymoqda. Internet imkoniyatlaridan erkin foydalanuvchilar bu borada keng qulayliklarga ega. Negaki endilikda yangiliklar yoki o'zingizni qiziqtirgan maqolalarni o'qish uchun smartfonga kerakli tahririyatning mobil ilovasini yuklab olish kifoya. Bundan tashqari internet nashrlari, ijtimoiy tarmoqlar orqali ham muntazam ravishda yangiliklardan xabardor bo'lib borish mumkin. Bu so'nggi ma'lumotlarni tezkor bilib olish hamda vaqtni tejashga yordam beradi.

Garchi internet OAV dunyoning ko'plab rivojlangan davlatlarida ommalashib ulgurgan bo'lsa-da, ulardagi bosma nashrlar adadi ham shunga muvofiq havas qilgulikdir. Aholi o'rtasida sog'lom muhitni mustahkamlash, sog'lom turmush madaniyatini shakllantirish bo'yicha kundalik-joriy ishlarni tashkil etish, shuningdek, sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish sharoitida tibbiy madaniyatni oshirish markazlari vazifasini o'tash, aholi o'rtasida turmush madaniyatini shakllantirish, oilaning tibbiy madaniyatini oshirish masalalari bilan bevosita shug'ullanish va bu sohada ommaviy axborot vositalarini kengroq jalb qilish sohaning rivojlanishiga muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Yurtimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish uchun bizga zamonaviy ilm va tarbiya, bugungi va ertangi kunimizni, yoshlarimiz taqdirini hal qiladigan yuksak malakali muallim va murabbiylar, professor-o'qituvchilar, haqiqiy ziyolilar kerak, deb yurtboshimiz o'z nutqlarida ta'kidladilar (Mirziyoev, 2021).

Bir vaqtning o'zida yangiliklar yoza oladigan, intervyu olish, tasvirga va videoga tushirish mahoratini uddalab, ularni chop etish yoki efirga uzatish uchun materiallar tayyorlaydigan universal jurnalistlarni yetishtirish bugun juda muhim (Shaymardonov, 2020).

Hozirgi kunda tibbiyot sohasida ham yetuk jurnalistlarni tarbiyalash juda muhim va jamiyat taraqqiy etishida katta ko'pri bo'lib xizmat qila oladi. Ommaviy axborot vositalari har sohada ilg'or qadamlar bilan odimlamoqda, bu esa jamiyatning yuksalishiga, kamol topishiga, sog'lom muhitning shakllanishiga poydevor bo'ladi.

### **Metodlar va manbalar**

Ushbu tadqiqotda qo'llanilgan usul qiyosiy tahlil usuli (nazariy usul) edi: biz turli tadqiqotchilarning, masalan, Lourens Grossberg Hall (1996), Nensi Chodorov (1989) va boshqalarning madaniy yo'nalishlarini rivojlantirish muammolarining ko'rinishini taqqosladik. Shuningdek, Xudoyqulov (2011) va Mo'minov (2019) kabi mahalliy tadqiqotchilarning ma'lumot tarqatish tarixi va muammolari haqidagi tasavvurlari.

Bundan tashqari, ushbu tadqiqot fokus-guruh shaklida amalga oshirilgan empirik usulga tayanadi: o'n nafar ishtirokchiga, ularning ba'zilari faol ommaviy axborot vositalari xodimlari, boshqa qismi ixtisoslashtirilgan universitet o'qituvchilariga savol berildi: "Sizningcha, shunday deb o'ylaysizmi? O'zbekiston aholisining tibbiy madaniyati yuqori darajadami? Natijalar tadqiqotning tegishli bo'limida jadvalga kiritilgan.

Manba sifatida Parshakova (2013), Jorgensen va Hanitzsch (2009), Elmiraeva (2017) kabi mahalliy va xorijiy tadqiqotchilarning nashrlari ishlatilgan.

### **Natijalar**

Zamonaviy jurnalistik tafakkurni shakllantirish, jurnalistni OAV tizimi talab-eh-tiyolariga mos keladigan amaliy, ijodiy faoliyatga tayyorlash bugungi kunning eng muhim vazifalaridandir (Parshakova, 2013).

Insonni axborot jamiyatda yashashga axborot orqali tayyorlash muammosi an'anaviy ravishda xalqaro hamjamiyat va eng avvalo, xalqaro tashkilotlar diqqat markazida turadi. YUNESKO media va axborot savodxonligi rivojlanishiga ko'maklashadi va uni "inklyuziv, ochiq, ishtirokchi va plyuralistik bilimlar jamiyatini barpo etish uchun zamin" deb hisoblaydi. Bugungi axborot bilan to'yingan jamiyat va chegarasiz axborot almashinuvi sharoitida jurnalistlarning o'ziga xolisligi va mediasavodxonligi masalasi o'ta muhim ahamiyat kasb etadi.

Lourens Grossberg Hall fikriga ko'ra, "deyarli barcha madaniy an'analarda" deb da'vo qilmoq tadqiqotlar, uning amaliyotchilari madaniyatshunoslikni shunchaki xronika sifatida ko'rmaydilar madaniy o'zgarish, lekin unga aralashuv sifatida va o'zlarini shunchaki emas balki hisob-kitob qiladigan, ammo siyosiy ishtirokchi sifatida olimlarni shuningdek, tibbiy madaniyatshunoslikdan foydalanishni "aralashuv" deb biladi (Hall, 1996).

Madaniyatshunoslik olimlari jinsni tahlil qilish uchun psixoanalitik nazariyadan foydalanganlar va kino, adabiyot va san'atdagi irq (boshqa omillar qatorida). Ushbu yondashuvdan foydalanib, bunday olimlar irq va jins biologik jihatdan muhim degan fikrga qarshi chiqishdi. Nensi Chodorov 1989 yil bu

madaniy identifikatsiya mahsulotlari ekanligini ta'kidlab, o'ziga xoslik jihatlarini da'vo qilib ta'kidlagan. Insonlar madaniyatining gender farqlari va farq tajribasini ijtimoiy va psixologik jihatdan foydalanish mumkin (Chodorov, 1989).

Inson oladigan axborotlarning turlari ham bizni o'rab turgan olam kabi xilma-xildir. Inson oddiy, kundalik turmush axborotidan tashqari ma'lum tartibga solingan axborotlar orqali ham ish ko'radi. Bularga ta'lim-tarbiyaviy axborotlar, kasbiy axborotlar, ilmiy axborotlar, badiiy-estetik axborotlar va boshqalar kiradi. Jamiyatni boshqarishda esa o'ziga xos turdagi axborotlar – ijtimoiy-siyosiy, xalqaro, harbiy, maxfiy va boshqa axborot turlari qo'llaniladi. Bular orasida ijtimoiy axborotlar alohida o'rin tutadi. Ijtimoiy axborotlar jamiyat uchun jamiyat haqida axborot yetkazishdan iboratdir (Xudoyqulov, 2011).

Filologiya fanlari doktori, professor Fayzulla Mo'minovning yozishicha, axborot almashishga bo'lgan ilk ehtiyoj Rim imperiyasidagi yuqori tabaqalarni boshqarishni muvofiqlashtirish tufayli paydo bo'lgan. Keng siyosiy axborot almashishlar siyosiy harakatlardan ko'ra, asosan, xo'jalik-iqtisodiy, shaxsiy, maishiy va biror narsani anglash maqsadlarini e'tiborda tutgan. Gips taxtachalarga hukumat qarorlari haqidagi xabarlar ham unda qisqa qilib yozib qo'yilgan. Bu yerda hamma narsa batafsil yozilmaganki, bunda yozma publitsistikaning an'analari ko'zga tashlanadi, ya'ni "hukumatga noma'qul faktlar haqida hech narsa deyilmagan". XV asrdan keyingina gips taxtachalar o'rnini yengil, qulay va tezlik ko'paytiriladigan qog'oz varaqalar egallay boshlagan (Mo'minov, 2019).

Jurnalistikada ixtisoslashuv eng murakkab va dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Sotsiologiya fanining otalari Tamber va Prentuis, Veber, Dyurkgeym singari olimlar ixtisoslik yo'nalishi va asosiy rolga qarab o'zaro ajratib chiqishgan. Jurnalistikada ixtisoslashuvni keskin chegaralash yoki farqlash qiyin masala. Chunki ilmiy adabiyotlarda jurnalistikaning o'ziga turlicha ta'rif beriladi. Jurnalistikada ixtisoslashuv masalasiga ilk bor Xalling va Manchini kabi tadqiqotchilar oydinlik kiritishgan. Xallingning fikrlari quyidagilarga asoslangan: Jurnalistikada sof tijorat va siyosat omillaridan xolis. Bundan tashqari, jurnalistika an'anaviy sohalar, jumladan, qonunshunoslik, tibbiyot, arxitektura, muhandislik kabi aniq kasblardan farq qiladi. Xalling va Manchini jurnalistik faoliyatning asosiy faoliyatlari sifatida quyidagilarga e'tibor qaratishadi: mustaqil faoliyat yuritish, aniq kasb normalari hamda jamoatchilikka xizmat qilish (Jorgensen, Hanitzsch, 2009). "Yaxshi so'z tarbiya va salomatlikning asosidir" degan fikrlar ilgari surilgan. So'z – odamning fikrini, istaklarini anglatuvchi vosita, inson tafakkuri ham aynan shu zabon orqali namoyon bo'ladi. Kishilarning mehr-muhabbati ham, qahru g'azabi ham bevosita



so'zlarda o'z aksini topadi. So'z borki, yaxshilikka xizmat qiladi, so'z borki, borliqni qorong'u zulmatga aylantiradi. – So'z – shifo. Har bir so'z yaxshilikka xizmat qilsa, so'zlar jismimizga malham bo'ladi. So'zning qudrati ham mana shunda (Elmirzaeva,2017).

Bugungi o'zbek jurnalistikasi jahon axborot makoni arxitektonikasiga tarkibiy bo'lim sifatida kirib borar ekan, axborotning zamonaviy janrlari va shakllaridan foydalanishni joriy etish masalasi davr talabidir. Ya'ni axborot matniga ortiqcha bezak berish, so'zlarni keragidan ortiqcha ishlatish tavsiya etilmaydi. Chunonchi dunyo axborot maydonida paydo bo'layotgan zamonaviy janrlarning barchasi qisqalikka va tezkorlikka yo'naltirilmoqda. Eskicha, siyqa yoki amorf (o'lik) usullarning davri o'tdi (Razzaqov,2020).

Hozirda har bitta sohada alohida keng qamrovli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Masalan, birgina tibbiyot sohasida amalga oshirilayotgan kenr qamrovli islohotlarni oladigan bo'lsak, bunda aholi salomatligini mustahkamlash, tibbiy madaniyatni shakllantirish insonlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini keng joriy qilish uchun bir qancha qonun va qarorlar tatbiq etilmoqda. Bularning barchasi inson qadri uchun, chunki sog'lom muhitda sog'lom fikrlar shakllanadi.

Butun dunyoda global muammoga aylanib borayotgan pandemiya COVID-19 sharoitida kasallikning oldini olish va jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug'ullanish hamda sog'lom turmush tarzi bo'yicha hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish to'g'ri ovqatlanish tamoyillariga amal qilish, sog'lom turmush tarzini shakllantirishga xizmat qiladi.

Biz axborot jamiyatida yashayapmiz. Har kim o'z yumushi bilan band. Biroq axborotga bo'lgan ehtiyoj hech qachon yo'qolmaydi. Axborot iste'molchisi esa hamisha o'zini qiziqtirgan xabarlarinigina qabul qiladi. Jurnalist uzatayotgan axborot aniq va to'laonli bo'lishi kerakligini taqozo etadi (Proxorov, 2005).

Respondentlarning fikriga ko'ra, hayotiy qadriyatlar reytingida "salomatlik" toifasi oilaviy qadriyatlardan keyin ikkinchi o'rinda turishi isbotlangan. Asosan, aholi kasalliklarni yengib o'tish kerak bo'lgan to'siq sifatida qabul qiladi, chunki hayotdagi muvaffaqiyat, oilaviy munosabatlar va tibbiy madaniyati ham bunga bog'liq. Aholi tibbiy madaniyatini o'stirish sog'lom fikrlar shakllanishiga bir ko'prik bo'lib xizmat qiladi.

So'nggi o'n yilliklarda "salomatlik" toifasidagi ilmiy tadqiqotlar ushbu konsepsiyaning bir qator tegishli jihatlari, xususan, salomatlikni o'z-o'zini baholash, unga bo'lgan munosabat haqida ma'lumot beradigan aholining sotsiologik so'rovlariga qiziqish ortdi. turli aholi guruhlari, sog'lom turmush tarzini shakllantirish (HLS) va o'z-o'zini saqlash xatti-harakati, rus jamiyatining tibbiy madaniyatining ajralmas qismi sifatida.

Bunday tadqiqotlar natijalariga ko'ra, sog'liqni saqlash xizmatlari uchun ham, aholi bilan sanitariya-ma'rifiy ishlar uchun ham turli xil dasturlarni ishlab chiqish uchun bir qator hal qilinmagan muammolarni aniqlash mumkin (Zharova, 2011).

Ma'lumki, sog'liqni saqlash ko'rsatkichlarini belgilovchi omillar guruhi tarkibida ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarning ulushi (mehnat sharoitlari, turmush tarzi, dam olish, ovqatlanish, bandlik, daromad va boshqalar.) taxminan yarmini egallaydi (50-55%); qolgan aksiyalar atrof-muhitga tushadi (18-25%), inson genetikasi (15-22%) va sog'liqni saqlash organlarining faoliyati (7-12%). Taqdim etilgan omillar guruhlarining tuzilishi ko'rsatkichdir, ammo inson salomatligini shakllantirishda dominant rol, ko'plab mutaxassislarining fikriga ko'ra, ijtimoiy-iqtisodiy yashash sharoitlariga tegishli bo'lib, ular haqida ma'lumotni sotsiologik tadqiqotlar davomida olish mumkin (Izmerov, 2002).

Zamonaviy aholining sog'lig'i o'zini o'zi qadrlash, ba'zi tibbiy xabardorlik (savodxonlik) mavjudligi, kasalliklarga munosabati, dori terapiyasining inson tibbiy madaniyatining asosiy mazmunini tashkil etuvchi kasalliklarni yaxshilash va oldini olish uchun ahamiyati haqidagi fikrlarini o'rganish ilmiy qiziqish uyg'otadi (Reshetnikov, 2014).

Ushbu tadqiqot maqsadlarida biz 10ta ishtirokchilardan iborat fokus-guruhni amalga oshirdik, ularning ba'zilar hozirgi OAV xodimlari, boshqa qismi ta'lim xodimlaridir. Biz ularga "Sizningcha, O'zbekiston aholisining tibbiy madaniyati ancha yuqori darajadami?" degan savolni berdik va quyidagi javoblarni oldik.

### OAV va ta'lim xodimlarining fikr mulohazalari natijalari

Ism familiya	Lavozim, vazifa	Javob	Natija	Umumiy natijalari %
V.Abduraxmonova	bosh muharrir	ha	qoniqarli	10%
K.Turdieva	adabiy muharrir	ha	qoniqarli	10%
N. Mehmonova	muharrir	ha	qoniqarli	10%
D. Usmonova	musahhih	yo'q	qoniqarsiz	10%
M. Mansurova	texnik muharrir	yo'q	qoniqarsiz	10%
M. Xudoyqulov	f.f.d., professor	ha	qoniqarli	10%

Ism familya	Lavozim, vazifa	Javob	Natija	Umumiy natijalari %
G. Xasanova	p.f.f.d,Phd	yo‘q	qoniqarsiz	10%
E. Boborajabov	Ilmiy bo‘lim boshlig‘i	ha	qoniqarli	10%
P. Allambergenov	Dsc doktorant	yo‘q	qoniqarsiz	10%
S.Maxsumova	f.f.f.d,Phd	ha	qoniqarli	10%

- 1)Umumiy qoniqarli natijalar: 60%
- 2)Umumiy qoniqarsiz natijalar: 40%

V.Abduraxmonova, "Pediatr" jurnali bosh muharriri, "(ha) Hozirgi davrga nisbatan olganda tibbiy madaniyat yuqori darajada deb ayta olamiz. Chunki, biz Pandemiya bosqichidan o‘tdik, insonlar o‘z salomatligiga e‘tiborli bo‘lishni o‘rganishdi". K. Turdieva, adabiy muharrir, "(ha) Jamiyatimizda tibbiy madaniyat tushunchasini avvalo, oilada farzand tarbiyasida shakllantirish lozim. Zeroki, farzandlarimiz bizning ertangi kunimiz kelajagimizdir. Bola ko‘proq oila muhitida o‘tib voyaga yetadi". N. Mehmonova, muharrir, "(ha) Bizning oilada tibbiy madaniyat juda ham yetarli darajada deb hisoblayman. Chunki, shifokorlar oilasimiz. O‘z sog‘ligimizga befarq emasmiz". D. Usmonova, musahhih, "(yo‘q) Tibbiy madaniyat shifokorga nisbatan munosabatdan boshlanadi. Avvalo, yurtimizda minglab, millionlab insonlar dardiga malham bo‘lishga bel bog‘lagan tibbiyot xodimlariga bo‘lgan muomala madaniyatidan boshlash lozim". M. Mansurova, texnik muharrir, "(yo‘q) Afsuski, hali insonlarimiz hayotida tibbiy madaniyat tushunchasi to‘liq o‘rin egallay olmagan. Ular bu holatga juda passiv qarashadi".

Prof. M. Xudoyqulov — "(ha) Hozirda O‘zbekiston aholisining ko‘proq qismida, qariyalar-keksalar qatlamida tibbiy madaniyat yuqori darajada rivojlangan". G. Xasanova p.f.f.d,(Phd), "(yo‘q) Insonlar o‘z salomatligiga juda befarq deb hisoblayman". S.Maxsumova,f.f.f.d,(Phd),"(ha) COVID-19 pandemiya jarayonidan so‘ng jamiyatdagi yashayotgan aholining ko‘p qismi o‘z salomatligiga befarq bo‘lmaslikni anglab yetdi". E. Boborajabov, Ilmiy tadqiqotlar,innovatsiyalar va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash sektor boshlig‘i, "(ha) Sog‘lik bebaho-boylikdir. Har bitta inson tibbiy madaniyatni hayoti davomida shakllantiradi". P. Allambergenov, Dsc doktorant, "(yo‘q) Jamiyatimizda tibbiy madaniyat shakllanishi bo‘yicha hali yetarlicha bilim va tajribaga ega emas".

Fokus-guruhdan olingan natijalar: shuni ko'rsatdiki. Masalan: "tibbiy madaniyat" tushunchasiga ishtirokchilarning deyarli ko'p (80%) qismi ijobiy javob bergan. Misol uchun, OAV xodimi, ustoz, professor, M. Xudoyqulov fikrlarini ifodalaydigan bo'lsak, "tibbiy madaniyat" ga asosan aholining yoshi katta qismi ya'ni 65-85 yosh atrofida qilar ko'proq amal qiladi deb fikr bildirgan. Yana bir fikrga to'xtalsak, nashriyot xodimi, musahhih, D. Usmonova "tibbiy madaniyat"ni shifokorlarga bo'lgan muomola odobidan boshlash kerak deb ta'kidlagan. Demak, o'tkazilgan tadqiqot natijalarida OAV **xodimlari bilan ta'lim xodimlarining** fikr va yondashuvlari bir-biriga juda ham yaqin bo'lgan o'rinli qarashlar bilan ifodalangan. Xulosa qiladigan bo'lsak, soha xodimlarining insonlar salomatligi va ertangi kelajagiga befarq emasligini yana bir marta olingan natijalarda isbotlab berdi.

### Xulosa

O'zbekistonda aholi tibbiy madaniyatini oshirishda mass-media o'rnini beqiyos hisoblanadi. Chunki radio-televideniya orqali uzatilayotgan qiziqarli ko'rsatuv va eshittirishlar, oilalarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, mahalla aholisi va yoshlar o'rtasida tibbiy madaniyatni oshirish va sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish sharoitida tibbiy madaniyatni oshirish markazlari vazifasini o'tash, aholi o'rtasida turmush madaniyatini shakllantirish, oilaning tibbiy madaniyatini oshirish masalalari bilan bevosita shug'ullanish va bu sohada ommaviy axborot vositalarini kengroq jalb qilish sohaning rivojlanishiga muhim omil bo'lib xizmat qilishiga bevosita bog'liqdir.

Mamlakatda amalga oshirilayotgan ulkan miqyosdagi islohotlar to'g'risidagi keng qamrovli ma'lumotlarni o'z vaqtida taqdim etish bo'yicha jamiyat ehtiyojlari axborot sohasidagi ishlarni sezilarli darajada oshirishni, davlat organlari va tashkilotlarining axborot xizmatlari, ommaviy axborot vositalarining faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishni taqozo etmoqda.

O'rnatilgan tartib-qoidalarga rioya qilingan holda, o'zlari to'plagan axborot resurslarini qayta ishlab, keng ommaga yetkazib berish borasida davr talabidan kelib chiqqan holda, taklif va tavsiyalarga asoslanib, ish olib borilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Aholi tibbiy madaniyatining oshishi nafaqat fuqarolarning uzoq umr ko'rishi, balki jamiyatning ijtimoiy barqarorligi, xususan komil insonni tarbiyalashning asosiy omilidir.



### Adabiyotlar ro'yxati

Elmirzaeva, N. 2017. Yaxshi so'z tarbiya va salomatlikning asosidir. Toshkent. Shifo-info. 17: 27 aprel. 33-34.

Mo'minov F. 2019. Antik davrda jurnalistikadan oldingi ko'rinishlar. Toshkent. O'zbekiston. 428-429.

Muratova N., Qosimova N., Toshpo'latova N., Shofayzieva N. 2008. Bosma OAV tahririyatlari uchun o'quv qo'llanma. Toshkent. O'zbekiston. 5-6.

Xudoyqulov, M. 2011. Jurnalistika va publitsistika. Toshkent. Tafakkur. 30-33. URL: [https://kitobxon.com/uz/kitob/jurnalistika\\_va\\_publicistika](https://kitobxon.com/uz/kitob/jurnalistika_va_publicistika). Murojaat sana: 15.03.2024.

Жарова, М.Н. 2011. Медицинская культура российского общества и ее формы. Главврач. 6. 87-95. URL: <https://base.garant.ru/58102217/#friends>.

Жиловский И. В. "Медиа образование"— М.: МПГУ, 2015. — 236 с // Медиа образование 2015: Сб. Трудов все российского форума конференций Медиа информационная грамотность для всех.

Измеров, Н.Ф.; Каспаров, А.А. 2002. Медицина труда. Введение в специальность. Москва. Медицина. 392. URL: <https://search.rsl.ru/ru/record/01001848111>.

Прохоров, Е.П. 2005. Введение в теорию журналистики, 349:6. URL: <https://search.rsl.ru/ru/record/01004920408>.

Паршакова А. В. Медиа и информационная грамотность в обществах знания, — М.: МЦБС, 2013.. — С. 14.

Решетников, А.В. 2014. Социология медицины. Москва. Геотар-Медиа. 864. URL: <https://search.rsl.ru/ru/record/01007497603>.

Althusser, L. 1971. Ideology and ideological state apparatuses (Notes towards an investigation). In Lenin and philosophy and other essays. New York. Monthly Review. 121–173.

Chodorow, N. 1989. Feminism and psychoanalytic theory. New Haven, CT. Yale University Press. URL: <https://yalebooks.yale.edu/book/9780300051162/feminism-and-psychoanalytic-theory/> Date of the application: 15.03.2024.

Hall, S. 1996. The fact of blackness: Frantz Fanon and visual representation. In A. Read. Seattle. WA. Bay Press. 12–37. URL: [chrome-extension://efaidnbmnnnibpcajpcglclefindmkaj/https://monoskop.org/images/4/43/The\\_Fact\\_of\\_Blackness\\_Frantz\\_Fanon\\_and\\_Visual\\_Representation\\_1996.pdf](chrome-extension://efaidnbmnnnibpcajpcglclefindmkaj/https://monoskop.org/images/4/43/The_Fact_of_Blackness_Frantz_Fanon_and_Visual_Representation_1996.pdf) Date of the application: 15.03.2024.

Smith, Dianna. 2010. Introduction to journalist. URL: <https://pdfcoffee.com/student-activity-workbook-pdf-free.html> Date of the application: 15.03.2024.

Wahl-Jorgensen, K.; Hanitzsch, T. 2009. The handbook of journalism study. New York. International Communication association. 48. URL: <https://www.routledge.com/The-Handbook-of-Journalism-Studies/Wahl-Jorgensen-Hanitzsch/p/book/9781138052895#> Date of the application: 15.03.2024.



**Muallif haqida:**

QURBANOVA Gulruxsor — O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikasiyalar universiteti 3-bosqich tayanch doktoranti (100027, Toshkent sh., Yunusobod tumani, KIYOT massivi, 88), e-mail: gulruxsorqurbonova59644@gmail.com

ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ МЕДИЦИНСКОЙ КУЛЬТУРЫ НАСЕЛЕНИЯ  
И ЕЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ В СОВРЕМЕННОЙ МЕДИАСРЕДЕ

**Аннотация:** В настоящее время узбекское медийное пространство имеет особое значение благодаря своей оперативности, правдивости и освещению актуальных тем. В связи с этим, чтобы развиваться, подниматься, расти, идти в ногу со временем, достигать огромных рубежей по всем направлениям, в каждом направлении проводятся отдельные комплексные работы. В рамках исследования были проанализированы уникальность и методы специализированной журналистики.

**Ключевые слова:** массовые -коммуникации, социально-экономические, архитектура, СМИ, COVID-19, инклюзивный, плюралистический, публичная информация.

**Об авторах:**

КУРБАНОВА Гулрухсор — докторант 3-го курса Университета журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана (100027, г.Ташкент, Юнусабдский р-н, м-в КИЙОТ,88), e-mail: gulruxsorqurbonova59644@gmail.com.

THE DEVELOPMENT STAGES OF POPULATION MEDICAL  
CULTURE AND ITS CHARACTERISTICS IN THE MODERN  
MEDIA ENVIRONMENT

**Abstract:** Currently, the Uzbek media space is of particular importance due to its efficiency, truthfulness and coverage of current topics. In this regard, in order to develop, rise, grow, keep up with the times, reach huge milestones in all directions, separate complex works are carried out in each direction. The research analyzed the uniqueness and methods of specialized journalism.

**Keywords:** mass communications, socio-economic, architecture, mass media, COVID-19, inclusive, pluralistic, public information.

**About the Authors:**

QURBANOVA Gulrukhsor — 3rd stage basic doctoral student of the University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan (100027, Tashkent district, Yunusabad district, KIYOT massif, 88), e-mail: gulruxsorqurbonova59644@gmail.com.